

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

LONICERA CAPRIFOLIUM L. (XUSHBO‘Y UCHQAT) O‘SIMLIGINING AYRIM BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jumayeva Turdixol Ro'zimamatovna

Termiz Davlat Pedagogika Instituti “Tabiiy fanlar fakulteti” biologiya ta’lim
yo‘nalishi 4-kurs talabasi.

Annotatsiya Maqolada xushbo‘y uchqat (*Lonicera caprifolium L.*) shifobaxsh o‘simligining inson uchun foydali xususiyatlari, undan xalq tabobatida keng foydalanilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Uchqatning barglaridan tayyorlangan damlamalar va rezavor mevasidan tayyorlangan dori darmonlarning afzallik tomonlari aytib o‘tilgan. Gullash biologiyasi. Changchilik faza, urg‘ochilik faza, proterandriya xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Uchqat, shilvi, lonicera, diareya, infeksiya, kasalliklar, antiseptika.

Аннотация: В статье содержатся сведения о полезных свойствах лекарственного растения – жимолости душистой (*Lonicera caprifolium L.*) и его широкое использование в народной медицине. Отмечены преимущества настоек из листьев и лекарственных средств из ягод. Приведены данные о биологии цветения и особенностях мужских и женских фаз цветения, протерандрии.

Ключевые слова: Жимолость, лонисера, диарея, убийца здоровья, инфекционные болезни, антисептики.

Annotation. The article contains information about the beneficial properties of the medicinal plant - honeysuckle (*Lonicera caprifolium L.*) and its widespread use in folk medicine. The benefits of tinctures from leaves and medicines from berries are noted. The article contains information about the beneficial properties of the medicinal plant - *Lonicera caprifolium L.* and its widespread use in folk medicine. The benefits of tinctures from leaves and medicines from berries are noted. Flowering biology. Information on the characteristics of the pollination phase, female phase, and proterandria is presented.

Keywords: Triple shilvi lonicera diareya health killer, antiseptika.

Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. Hozirgi kunda 1000 dan ortiq (50-60%) o‘simlik turining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-sonli qaroriga muvofiq “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari asosida tavsiya etilgan o‘simliklardan biri shilvidoshlar (*Caprifoliaceae*) oilasiga mansub Uchqat (*Lonicera*) o‘simligidir.[1]

Uchqat dorivor o‘simliklar orasida shifobaxshligi va darmondoriligi bilan alohida ajralib turadi. Uchqat o‘simligi chirmashib o‘sovchi butasimon liana hisoblanib, bo‘yi 4-6 m keladi. Barglari oddiy yoki murakkab, odatda yonbargsiz, bezli tukchalar bilan qoplangan bo‘ladi, gullari tog‘ri yoki notogri tuzilgan odatda 5 a‘zoli. Kosachasi yaxshi taraqqiy etmagan, gulltoji oqish-sarg‘ish-qizg‘ish rangli. Mevasi och qizil 6-8 mm rezavor meva.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Shilvi turkumiga kiruvchi turlar asosan shimoliy yarim sharda va And tog‘larida tarqalgan. Bu turkum 250 ga yaqin turni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston florasida esa 20 turi uchraydi. Jumladan, xushbo‘y uchqat, tangachabarg uchqat, Tatar uchqati, maydagul uchqat, koralkov uchqati, nozik uchqat kabilar uchraydi (Koropachinsky, Vstovskaya, 2012).

Bu turlardan inson ehtiyoji uchun tabobatda va zamonaviy tibbiyotda juda keng foydalaniladi.

Lonicera caprifolium ning to‘pguli politelik, cheklanmagan dibotrik, gullari birinchi tartibli yon shoxlar o‘qlarida joylashgan. Gullari ikki jinsli, zigomorf. To‘pgullarda gullari akropetal tipda ochiladi. Termiz sharoitida gullash davri 150-190 kun (aprel oyining oxiri - oktyabr oyining ikkinchi o‘n kunligi). Ikki jinsli gullarida chetdan changlanishga bo‘lgan moslanish – proterandriya ko‘rinishidagi dixogamiya kuzatildi.

Lonicera caprifolium L. o‘simligida kechki gullash tipi kuzatilib, gullari soat 18.00 dan keyin ochila boshlaydi va gullar to‘rt soat davomida gullaydi, soat 22 00 dan keyin gullarining ochilishi to‘xtaydi. O‘simlikda ochilgan gullarning maksimum miqdori soat 18 00 dan 20 00 gacha (havoning harorati 33°C va nisbiy namligi 18%) amalga oshadi va undan keyin ochilayotgan gullar soni kamayib borib, soat 22 00 dan keyin gullarning ochilishi to‘xtaydi.

Gullarda dastlab gullashning changchilik fazasi (erkaklik fazasi) boshlanadi. Bu faza gulning gultoji ochilgandan so‘ng 1.5-2.0 soatdan keyin boshlanadi va changlarini tarqatib bo‘lgan changchilarning qurishi bilan tugaydi. Gul ochilgandan keyin 36 soat o‘tgach, gul toji sarg‘aya boshlaydi va changchilar quriy boshlaydi. Ayni shu vaqtdan boshlab gullarda urg‘ochilik fazasi boshlanadi. Urug‘chi 84 soat davomida faol bo‘lib, keyin asta-sekin quriy boshlaydi, lekin u gullarda 96 soat davomida saqlanib qoladi. Gullashning erkaklik fazasi 36 soat, urg‘ochilik gullash fazasi esa - 60 soat davom etadi [1-rasm].



Rasm. A—to‘pgullarda gullarning ochilish sxemasi; B-gul ochilgandan 2 soat keyin (changchilik fazasi), C-36 soatdan keyin (urg‘ochilik fazasi).

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, uchqat o‘simligi 1000 dardga davo bo‘luvchi shifobaxsh o‘simlik hisoblanadi. Uchqat o‘simligining vegetativ va generativ organlaridan damlama va qaynatmalardan foydalanilsa ham bo‘ladi. *Lonicera caprifolium* L. aholi punktlarini vertikal ko‘kalamzorlashtirish maqsadlarida ekib o‘stiriladi. O‘simlik uzoq vaqt: aprel oyidan kech kuzgacha manzaraliligini yo‘qotmaydi. Kelgusida o‘simlikning efir moylilik xususiyatlarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-sonli qarori. 2.

2. Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi. Toshkent. Tafakkur bo‘stoni-2018.

3. Джумаев Х. К., Ткаченко К. Г. Особенности анэкологии *Lonicera japonica* Thunb. в условиях юга Узбекистана. Труды по прикладной ботанике, генетике и селекции 182 (3), 2021. – С. 159-166.

4. Muxamedova M.SH, Xodjayeva M.A, Komilov X.M, “Tarkibida alkaloidlari bo‘lgan dorivor o‘simliklar va mahsulotlar” Toshkent-2009.

5. Koropachinsky I.Yu., Vstovskaya T.N. Woody plants of Asian Russia (Drevesnye rasteniya Aziatskoy Rossii). Novosibirsk: Geo; 2012. [in Russian] (Коропачинский И.Ю., Встовская Т.Н. Древесные растения Азиатской Рос-сии. Новосибирск: Гео; 2012)